

## Shartnoma Majburiyatlari Lozim Darajada Bajarilmaganligining Huquqiy Oqibatlari

Aliyev Axmadjon Azimjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti Mediatsiya va nizolarni muqobil hal qilish usullari yo'nalishi talabasi, [ahmadjonaliyeva@gmail.com](mailto:ahmadjonaliyeva@gmail.com)

**Annotatsiya:** ushbu maqolada shartnoma majburiyatlari buzilishining huquqiy oqibatlari va uning oldini olish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar, shuningdek shartnoma majburiyatlari buzilishi natijasida shartnomaviy munosabat ishtirokchilariga nisbatan qonunchilikda belgilangan javobgarlik masalalari, shartnoma majburiyatlarini ta'minlash tartiblari va nazariy qarashlar o'rin olgan.

**Kalit so'zlar:** shartnoma, majburiyat, penya, jarima, neustoyka, kolliziyalar, boy berilgan foyda, lozim darajada bajarmaslik, tovarlar, muddat, xizmat, pudratchi, buyurtmachi.

Shartnomaviy munosabatlarda belgilangan majburiyatlarning to'liq yoki lozim darajada bajarilmasligi holatlarida tomonlarning javobgarligi masalasi muhim o'rin egallaydi.

Chunki, taraflar tuziladigan shartnomalarda bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi. Shartnoma erkinligi tamoyilining mazmuni Fkning 354-moddasida mustahkamlab qo'yilgan Unga ko'ra fuqarolar va yuridik shaxslar shartnoma tuzishda erkindirlar. Hech kim taraflani shartnoma tuzishga majbur qila olmaydi. Shu sababli, shartnoma yuridik shaxslarning o'z xohishiga ko'ra, o'z erki irodasi bilan tuziladi. Bu esa majburiyatlarning to'liq yoki lozim darajada bajarilmasligi uchun javobgarlik belgilanishi esa adolat mezonini hisoblanadi.

Fikrimizcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlash usullari mustaqil mulkiy oqibatlarni yuzaga keltirish xususiyatiga ega bo'lishi lozim.

Zero, bu mulkiy oqibat keltirilgan zararni qoplash orqali taraflarning manfaatini himoya qila olishi va ta'minlovchi choralarni bajarilishini ta'minlash usuli sifatida e'tirof etish uchun ular qarzdorni o'z majburiyatini bajarishga undash xususiyatiga ega bo'lishi lozim.

I.B.Zokirovning fikricha "Shartnoma majburiyatlari ham o'z navbatida mol-mulkni ashyoviy huquq asosida topshirish, foydalanish uchun berish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, birgalikdagi faoliyat bo'yicha majburiyatlarga bo'linadi"<sup>1</sup>.

Majburiyat tushunchasi to'g'risida ta'rif bergan huquqshunos olim X.Raxmonqulovning quyidagi fikrlarini ko'rib chiqsak maqsadga muvofiqdir. Unga ko'ra "fuqarolik huquqi normalar bilan tartibga solinadigan mulkiy munosabatlardir, shu sababli u majburiyat huquqiy munosabatlar shakliga egadir. Bunday munosabatlarda ikki taraf qatnashadi ulardan biri qarzdor ikkinchisi esa kreditor edb ataladi. Qarzdor kreditor foydasiga muayyan harakatlarni bajarishga majbur, kreditor esa ushbu harakatlarni bajarishni talab qilish huquqiga ega bo'ladi"<sup>2</sup>.

Shartnoma majburiyatlari buzilishining huquqiy oqibatlari albatta o'z o'rnida majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik bilan bog'liq va bu javobgarlik mulkiy javobgarlik sanaladi. Fuqarolik kodeksining 24-bobida majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlikka oid qoidalar belgilab

<sup>1</sup>Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi: Darslik I qism.-Toshkent: TDYuI, 2006 -14 b

<sup>2</sup> Raxmonqulov.X. Majburiyat huquqi(umumiy qoidalar). Darslik. -T.: TDYuI, 2005, 9-b.

o'tilgan. Jumladan, Kodeksning 14-moddasiga asosan agar qonun yoki shartnomada zararni kamroq miqdorda to'lash nazarda tutilmagan bo'lsa, huquqi buzilgan shaxs o'ziga yetkazilgan zararining to'la qoplanishini talab qilishi mumkinligi belgilangan.

Zarar deganda, shaxsning buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo'lgan xarajatlari, uning mol-mulki yo'qolishi yoki shikastlanishi, shuningdek bu shaxs o'z huquqlari buzilmaganida odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo'lgan, lekin ololmay qolgan daromadlari, ya'ni boy berilgan foyda tushuniladi.

Kodeksning 324-moddasiga asosan qarzdor majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi tufayli kreditorga yetkazilgan zararni to'lashi shart. Biroq zararining miqdorini aniqlash har doim ham aniq belgilangan mezonlarga emas aksincha shartnoma shartlari asosida amalga oshiriladi. Agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada o'zgacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, zararni aniqlashda majburiyat bajarilishi kerak bo'lgan joyda, qarzdor kreditorning talablarini ixtiyoriy qanoatlantirgan kunda, bordi-yu, talab ixtiyoriy qanoatlantirilgan bo'lmasa, — da'vo qo'zg'atilgan kunda mavjud bo'lgan narxlar e'tiborga olinadi<sup>3</sup>.

Sud ish holatlariga ko'ra zararni to'lash haqidagi talabni qaror chiqarilgan kunda mavjud bo'lgan narxlarni e'tiborga olgan holda qanoatlantirishi mumkin. Boy berilgan foydani aniqlashda kreditor tomonidan uni olish uchun ko'rilgan choralar va shu maqsadda ko'rilgan tayyorgarliklar hisobga olinadi.

Kodeksning ushbu bobidagi qoidalar umumiy xususiyatga ega bo'lganligi bois, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning shartnomaviy munosabatlarini tartibga solish bo'yicha maxsus qonun hujjati qabul qilinishi bo'yicha ehtiyoj tug'ildi.

Shu maqsadda, 1998 yil 29 avgustda "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilingan<sup>4</sup>.

Mazkur Qonun bilan xo'jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilishning huquqiy asoslari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning huquqi va majburiyatlari, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati va davlat boshqaruv organlarining shartnoma munosabatlari sohasidagi vakolatlari belgilab berildi.

Qonunning V bo'limida shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun javobgarlikka oid qoidalar ko'rsatilgan bo'lib, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqa tartib nazarda tutilgan bo'lmasa shartnomalarni to'liq va lozim darajada bajarmaganlik uchun ushbu qonunning V bo'limida nazarda tutilgan javobgarlik choralari qo'llaniladi.

Jumladan, tovarlarni yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan, ishlar bajarilmagan yoki xizmatlar ko'rsatilmagan hollarda, tovar yetkazib beruvchi (pudratchi) sotib oluvchiga (buyurtmachiga) kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

Ko'rilgan zararga shartnoma majburiyatlari bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi munosabati bilan zarar ko'rgan taraf qilgan xarajatlar, mol-mulk yo'qolishi yoki shikastlanishi, shuningdek agar ikkinchi taraf shartnoma majburiyatlarini bajarganida taraf olishi mumkin bo'lgan, lekin ololmay qolgan daromadlar kiradi.

Bizning fikrimizcha majburiyat bajarilmaganda qarzdorga nisbatan qat'iy ravishda 0.4 yoki 0.5 foiz penya belgilashning "mexanik" tarzda amalga oshirilishi adolatsiz qarorlar qabul qilinishiga olib keladi. Asosiy majburiyatning o'ziga xos jihatlari inobatga olmasdan barcha majburiyatlar uchun "bir xil qolip" yaratib, miqdori belgilanishi ikkita salbiy oqibatni keltirib chiqadi. Birinchidan,

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 324-modda

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni

tafaflarni o'z majburiyatlarini bajarishga undamaydi, balki ularda "loqaydlik"ni yuzaga keltiradi. Chunki uni yo'qotish taraflar uchun arzimagan ahamiyatga ega bo'ladi, ikkinchidan, ta'minlash usulining ta'minlash kuchi yo'qolishiga olib keluvchi holati yuzaga keladi. Chunki u rasmiyatchilik uchun belgilanadi, xolos. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 163-son qaroriga belgilangan shartnomada jarima yoki penya shaklida belgilanadigan neustoyka taraflar tomonidan qabul qilingan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash usullaridan biri hisoblanadi.

Sudlar neustoykani undirish to'g'risidagi da'volarni hal qilishda neustoyka miqdorining qonun talablariga muvofiq hisoblanganligi, uning asosiligi, majburiyat buzilishi oqibatlariga mutanosibli kabi holatlarni har tomonlama va chuqur muhokama qilib, talab qilingan neustoykaning adolatli miqdorini belgilashlari shart<sup>5</sup>.

Ko'rinib turibdiki taraflar tomonidan shartnomada belgilangan majburiyat bajarilmasa yoki lozim darajada bajarilmasa ular majburiyatlarni ta'minlash vositasi hisoblanadigan jarima yoki penya undirishni so'rab sudga murojaat etishlari mumkin. Va bu ikkala termin neustoyka so'zida mujassam bo'ladi. Sudlar neustoykaning qonun talablariga muvofiqligi va asoslanganligini shuningdek ularni majburiyatlarni bajarilmaslik oqibatlariga mutanosiblik yoki nomutanosibligiga ahamiyat berishlari va adolat mezonlariga ko'ra belgilashlari lozim.

Xulosa qiladigan bo'lsak shartnomaviy munosabatlarda majburiyatlarning buzilishi holatlari ro'y berganida shartnomada belgilangan taraflar tomonidan qabul qilingan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash usullaridan biri penyani taraflarni majburiyatlarni bajarishga undaydigan tarzda 0.5 foiz miqdoridan 0.10 foizgacha belgilash lozim va sudlar tomonidan bu tekshirilib dalillar bilan asoslantirilgan taqdirda ularning talablari qanoatlantirilishi lozim.

Sudlarga shartnomaviy majburiyat bajarilmagan taqdirda neustoyka miqdorini shartnoma predmeti va taraflarning moliyaviy ahvoriga qarab belgilash bo'yicha aniq metodik ko'rsatmalar ishlab chiqish va ularni qonunchilik bilan mustahkamlash zarur. Shuningdek, fuqarolik huquqi fanining asosiy e'tibori kreditor shaxsiga e'tibor qaratilgan, qarzdor esa faqat bironing irodasini bajaruvchi shaxs sifatida tan olinadi. Shu sababli, majburiyat munosabatlari ishtirokchisi – qarzdorning manfaatlarini amalga oshirish bilan bog'liq masalalar bir chetda qolmoqda. Qarzdor tomonning manfaatlarin bunday inkor qilish noto'g'ri hisoblanadi. Zero fuqarolik-huquqiy munosabatlarda taraflar teng huquqli subyektlardir. Qarzdorning huquqlari va manfaatlari himoyalansa, u o'z majburiyatlarini bajarishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, bu esa oxir-oqibatda majburiyatlarning bajarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi: Darslik I qism.-Toshkent: TDYuI, 2006 -14 b
2. Raxmonqulov.X. Majburiyat huquqi(umumiy qoidalar). Darslik. –T.: TDYuI, 2005, 9-b.
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 324-modda
4. O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining qarori, 15.06.2007 yildagi 163-son "MAJBURIYATLARNI BAJARMAGANLIK YOKI LOZIM DARAJADA BAJARMAGANLIK UCHUN MULKIY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDAGI FUQAROLIK QONUN HUJJATLARINI QO'LLASHNING AYRIM MASALALARI HAQIDA"

---

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining qarori, 15.06.2007 yildagi 163-son "MAJBURIYATLARNI BAJARMAGANLIK YOKI LOZIM DARAJADA BAJARMAGANLIK UCHUN MULKIY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDAGI FUQAROLIK QONUN HUJJATLARINI QO'LLASHNING AYRIM MASALALARI HAQIDA"